

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,  
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR  
UNIVERSITETI**

**“AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA TABIIY  
FANLAR” KAFEDRASI O‘QITUVCHISI**

**ARIPOVA MADINANING «KIMYO 1,2» FANIDAN**

**“VII A GURUH ELEMENTLARI”**

**MAVZUSIDA**

**2024 YIL 13 -NOYABR KUNI O'TKAZILADIGAN**

**OCHIQ MA’RUZA**

**MASHG‘ULOTI UCHUN METODIK ISHLANMA**

**Samarqand 2024**

**Tuzuvchi:**

**Aripova M.- SamDVMCHBU “Axborot texnologiyalari va tabiiy fanlar” kafedrasi o‘qituvchisi**

**Taqrizchilar:**

**Tillayev S. - Sh. Sharof Rashidov nomidagi SamDU organik sintez va bioorganik kimyo kafedrasi dotsenti**

**Aminov Z. - SamDVMCHBU “Axborot texnologiyasi va tabiiy fanlar” kafedrasi dotsenti, k-f.n.**

## O ‘quv mashg‘ulotining ta’lim texnologiyasi modeli

### MAVZU: “VII A guruh elementlari”

(2 SOAT)

<b>Vaqt:</b> 2 soat	<b>Talabalar soni:</b> nafar
<b>O‘quv mashg‘lotining shakli va turi:</b>	Ma’ruza mashg‘uloti
<b>Dars rejasi (o‘quv mashg‘ulotining tuzilishi):</b>	<ol style="list-style-type: none"><li>1. Galogenlarga umumiy xarakteristika.</li><li>2. Galogenlarning vodorodli birikmali.</li><li>3. Galogenlarning kislorodli birikmali.</li><li>4. Galogenlar birikmalarining biologik xususiyatlari.</li><li>5. Ftor, xlor, brom, yod olinishi, birikmali, xossalari.</li></ol>
<b>O‘quv mashg‘uloti maqsadi:</b>	Talabalarni fan yuzasidan egallagan nazariy egallagan bilimlarini amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish, mustahkamlash, kengaytirish, Ularda “VII A guruh elementlari” haqida yangi ma’lumotlar bo‘yicha ko‘nikmalar hosil qilish. Talabalalarda ushbu mavzu yuzasidan bilim va malakalarni rivojlantirish.
<b>Pedagogik vazifalar:</b>  - talabalarning oldingi mashg‘ulotlarda o‘zlashtirgan bilim va ko‘nikmalarini mustahkamlash;	<b>O ‘quv faoliyati natijalari:</b>  - talabalar oldingi mashg‘ulotlarda olgan bilim va ko‘nikmalarini namoyon etadilar;  - dars davomida Ftor, Xlor, Brom va Yod elementlarining birikmali va ularning oziq-ovqat texnologiyasi sanoatida qo‘llanilishi haqida tushunchaga ega bo’ladilar;

<b>Ta'lim usullari:</b>	muloqot, aqliy hujum.
<b>Ta'lim shakli:</b>	Jamoa, guruhlarda ishlash, yakka tartibda ishlash, tezkor savol javoblar
<b>Ta'lim vositalari:</b>	O‘quv dasturi, ma’ruza mashg‘ulotlar matni, darslik, o‘quv qo‘llanmalari, uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma materiallar, kompyuter texnologiyasi va boshqalar.
<b>Ta'lim berish sharoiti:</b>	Dekanat tomonidan dars jadvalida belgilangan, guruh bo‘lib ishlashga mo‘ljallangan xona.
<b>Monitoring va baholash:</b>	Og‘zaki so‘rov: amaliy natija.

**“VII A guruh elementlari” mavzusi bo‘yicha texnologik xarita**

№	Faoliyat mazmuni	
	Ta’lim beruvchi	Talaba
<b>1-bosqich Tayyorgarlik (15 daqiqa)</b>	1.1. Ma’ruza mashg‘ulotning mavzusi, rejasini e’lon qiladi, o‘quv mashg‘ulotining maqsadi va o‘quv faoliyat natijalarini tushuntiradi.	Tinglaydi
	1.2. Mashg‘ulotni o‘tkazish shakli va mezonlarini e’lon qiladi.	Tinglaydi
	1.3. Talabalarga VII A guruh elementlari bo‘yicha axborot berish.	Tinglaydi
<b>2-bosqich Asosiy (30-35 daqiqa)</b>	1. Galogenlarga umumiy xarakteristika. 2. Galogenlarning vodorodli birikmalari. 3. Galogenlarning kislородли birikmalari. 4. Galogenlar birikmalarining biologik xususiyatlari. 5. Ftor, xlor, brom, yod olinishi, birikmalari, xossalari.	Tajribalar bajaradi  Tajribalar bajaradi Tajribalar bajaradi
<b>3-bosqich Yakuniy (25-30 daqiqa)</b>	3.1. Ma’ruza mashg‘uloti bo‘yicha umumiy xulosa qilinadi.	Tinglaydi
	3.1. Talabalarni o’tilgan mavzular bo‘yicha so’raladi.	O’tilgan mavzular bo‘yicha javob beradi. Tinglaydi
	3.2. So’ralgan mavzu bo‘yicha baholanadi.	Tinglaydi
	3.3. Navbatdagi mashg‘ulotda ko‘riladigan mavzuni e’lon qiladi	Tinglaydi

## Metallmaslar. VII-A guruh elementlari.

### Umumiy xarakteristika

VII gruppaga p-elementlariga fтор F, xlor Cl, brom Br, yod J va astat At kiradi.

VII guruxning tipik elementlari gruppasi F<sub>2</sub>, Cl<sub>2</sub>, brom guppachasi (Br<sub>2</sub>, J<sub>2</sub>, At).

Galogen suzi yunoncha «golos» (tuz) va «genodos» (tug`diruvchi) so`zidan kelib chiqqan. Galogenlarning dastlabki to`rttasi tabiatda anchagina tarqalgan. Oxirgi galogen - astat esa tabiiy radioaktiv yemirilishlarning oraliq maxsulotlari tarkibida uchraydi; u sun`iy ravishda, yadro o`zgarishlari yordami bilan hosil qilinadi. Galogenlar atomlarining sirtqi qavatida yettitadan elektron ( $s^2p^5$  - elektronlar) bo`ladi. Shu sababli, galogen atomi o`ziga yana bitta elektron biriktirib olib, o`zining sirtqi qavatini sakkiz elektronli (ya`ni  $s^2p^6$ ) oktet konfigurasiyaga o`tkazishga intiladi. Galogenlarning hammasi ham erkin holatda kuchli oksidlovchilar bo`lib, ayniqsa, fтор bizga ma`lum bo`lgan barcha oksidlovchilar orasida eng kuchlisi hisoblanadi. Galogenlar gruppasining birinchi a`zosi fтор boshqa galogenlardan birmuncha farq qiladi. U faqat - 1 ga teng bo`lgan oksidlanish darajasiga ega. Uning kislorodli birikmasi -F<sub>2</sub>O da ham fтор - 1 valentlidir; shuning uchun F<sub>2</sub>O ning nomi kislorod ftorid deyiladi. Ftorining vodorodli birikmasi vodorod ftorid H<sub>2</sub>F<sub>2</sub> suvda yaxshi eriydigan suyuqlik. Vodorod ftorid suvdagi eritmada ikki bosqichda ionlarga ajraladi. Uning birinchi bosqichi, xuddi o`rtacha kuchdagagi kislotalarining ionlarga ajralishidek bo`lib, ikkinchi bosqichi esa kuchsiz kislotalarining dissosilanishi kabitdir. Shu sababli ftorid kislotani o`rtacha kuchdagagi kislotalar qatoriga kiritish mumkin. Cl<sub>2</sub>, Br<sub>2</sub>, va J<sub>2</sub> o`zlarining ko`pchilik birikmalarida - 1 valentli bo`ladi. Bu elementlar yana boshqa valentliklarni ham namoyon qila oladi. HCl, HBr, HJ ning suvdagi eritmalari kuchli kislotalar bo`lib, HCl dan HJ ga o`tgan sayin kislotaning kuchi ortib boradi, chunki Cl<sup>-1</sup>, Br<sup>-</sup>, J<sup>-1</sup> qatorida chapdan o`ngga o`tgan sayin ionning zaryadi o`zgarmagan holda radiusi kattalasha boradi. Shu sababli HCl, HBr, HJ ning qaytaruvchilik xossalari ham HCl dan HJ ga tomon kuchayib boradi.

Cl<sub>2</sub>, Br<sub>2</sub>, J<sub>2</sub> o`z birikmalarida - 1 dan tashqari +1 dan +7 ga kadar oksidlanish darajalarini namoyon qila oladi.

+1	HClO, HBrO, HJO
+5	HClO <sub>3</sub> , HBrO <sub>3</sub> , HJO <sub>3</sub>
+7	HClO <sub>4</sub> , H <sub>5</sub> JO <sub>6</sub>

Bu yerda keltirilgan gorizontal qatorda kislotalarining kuchi kamayadi, vertikal qatorda esa ortib boradi. Keyingi holat, ayniqsa xlorining kislorodli kislotalarida kuchli ifodalangan, chunonchi HClO<sub>4</sub> nixoyat kuchli kislota; HJO - amfoter xossalarni namoyon qiladi.

### 1. Fтор, olinishi, birikmalar, xossalari

**Fтор** F<sub>2</sub> tartib raqami Z=9, atom og`irligi 18,998 izotopining massa soni 19, elektron konfigurasiyasi  $1s^22s^22p^5$ . Fтор barcha elementlar ichida eng katta elektrmanfiylik namoyon qiladi; uning nisbiy qiymati NEM=3,95 ga teng. Ftorining o`z birikmalaridagi oksidlanish darjasasi - 1 ga teng. Ftorining axamiyatga sazovor

minerallari kalsiy ftorit  $\text{CaF}_2$  (plavik shpat) va kriolit  $\text{Na}_3\text{AlF}_6$  dir. Tarkibida ftoi bo`lgan minerallardan appatitlar  $\text{Ca}_5(\text{PO}_4)_3$ ,  $(\text{Cl}, \text{F})_2$  ni ham ko`rsatib o`tish mumkin. Ftor Yer qobig`ida og`irlilik jixatdan  $2,7 \cdot 10^{-2} \%$  tarqalgan. Tabiatda ftorning birgina izotopi F - 19 uchraydi. Uning massa sonlari 16 dan 21 gacha bo`lgan izotoplari sun`iy yo`llar bilan olingan.


Ftor  $217^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan KF ( HF dan yoki  $72^{\circ}\text{C}$  da suyuqlanadigan

KF · 2HF tarkibli tuzdan foydalanib olinadi. Bu usul labaratoriya va texnika uchun katta axamiyatga ega. Endilikda bu maqsad uchun platina idish urnida mis va nikel qotishmalardan idishlar qo`llaniladi. Anod sinfatida grafit ishlataladi.


Ftor, och sariq-yashil tusli o`tkir hidli gaz, nafas yuli shilliq pardalarini achitadi va nafasni bug`adi. Ftor  $-188^{\circ}\text{C}$  da och-sariq tusli suyuqlikka aylanadi,  $-220^{\circ}\text{C}$  da qattiq holatga o`tadi, erkin ftor  $\text{F}_2$  molekulalaridan iborat. Ftorni suvda eritib bo`lmaydi, chunki u suv bilan shiddatli reaksiyaga kirishib ketadi.  $\text{F}_2$  benzol, xloroform kabi erituvchilarda eriydi. Ftorning elektronga moyilligi 82,8 kkal/g·atom; ionlanish energiyasi 390,7 kkal/g·atom; elektromanfiyliji 390,7+82,8=473,5 kkal/g·atom. Elementlarning nisbiy elektromanfiylik jadvalida  $\text{F}_2$  birinchi o`ringa joylashgan. Ftor atomining radiusi kichik bo`lganligi sababli, uning yadrosi elektronlarini juda kuchli tortib turadi. Shuning uchun ftor atomining tashqi qavatidan bironta elektronni chiqarib yuborish nixoyatda qiyin. Ftor eng kuchli metallmas. Ftor eng kuchli oksidlovchi.

Kislород ва azot bilan ftor bevosita birikmaydi; qolgan barcha elementlar bilan muvofiq reaksiya sharoitda bevosita birikadi.


Ftorning vodorodli birikmasi HF plavik shpat -  $\text{CaF}_2$  ga konsentrangan sulfat kislota  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta`sir ettirilsa gazsimon vodorod ftorid hosil bo`ladi.



HF asosan ana shu reaksiya bo`yicha olinadi. HF shishaga ta`sir etadi; shuning uchun bu reaksiya platina yoki qo`rg`oshindan yasalgan idishlarda o`tkaziladi. Ftor, vodorod bilan nixoyatda shiddatli ravishda birikadi.




O`ta toza HF olish uchun  $\text{MeF}$  ( HF tipidagi nordon ftoridlarni qizdirishdan foydalaniladi.




Toza HF  $19,5^{\circ}\text{C}$  dan past haroratda rangsiz havoda kuchli tutaydigan suyuqlik,  $19,5^{\circ}\text{C}$  dan yuqori haroratda esa rangsiz nixoyatda o`tkir xidli va zaxarli gaz. Uning muzlash harorati -  $83,1^{\circ}\text{C}$ . HF molekulalari vodorod bog`lanish orqali o`zaro birikib ( $\text{HF}_x$ ) ni hosil qiladi,  $X=2, 3, 4, 5, 6, 7, 8$  bo`lishi mumkin. HF bug`larida ham deyarli assosilanish mavjud ekanligi aniqlangan; lekin  $90^{\circ}\text{C}$  dan yuqori haroratda HF faqat yakka-yakka molekulalar ( $\text{HF}$ ) dan iborat bo`ladi. HF zaxarli modda, agar qo`lga tomsa uzoq vaqt tuzalmaydigan yara hosil qiladi.

Vodorod ftoridning suvdagi eritmasi o`rtacha kuchdagisi kislota xossasiga ega. Umum e`tirof etgan tasavvurlarga muvofiq, HF ning suvdagi eritmasi bir asosli kislota xossalari namoyon qiladi. Suvda HF dissosilanishidan hosil bo`lgan ftor ioni HF ning dissosilanmagan molekulasini o`ziga qushib olib, murakkab ion  $\text{HF}_2^{--}$  ga aylanadi. Bu tasavvurga muvofiq, HF ning bir molyar eritmasida 10% ga yaqin  $\text{HF}_2^{--}$


ionlari va taxminan 1% F<sup>-</sup> ionlari bordir. Buni quyidagicha tenglama bilan tasvirlash mumkin:



Plavik kislota xlorid kislotaga qaraganda (va boshqa vodorod gologenid kislotalariga qaraganda) juda kuchsiz. Plavik kislota Au va Pt dan tashqari boshqa ko`pgina metallarni o`zida eritadi. U Pb ning faqat sirtiga ta`sir etadi. Plavik kislota shishani yemiradi; bu vaqtida shisha tarkibidagi SiO<sub>2</sub> plavik kislotada erib gazsimon SiF<sub>4</sub> xosil bo`ladi:



SiF<sub>4</sub> suv tomchisi bilan ta`sirlashsa, gidrolizlanib ortosilikat kislota xosil qiladi.



Plavik kislataning tuzlari NaF, KF va CaF<sub>2</sub> suvda yomon eriydi, lekin uning AgF tuzi suvda yaxshi eriydi.

Fe, Al, Sr, Ti va boshqa metallarning ftoridlari ishqoriy metallarning ftoridlari bilan kompleks ftoridlar hosil qiladi: KTiF<sub>5</sub>, KCrF<sub>4</sub>


Ftorni kislorodli birikmalari uchta: OF<sub>2</sub><sup>-</sup> kislorod ftorid: O<sub>2</sub>F<sub>2</sub><sup>-</sup> kislorod diftorid; O<sub>3</sub>F<sub>2</sub><sup>-</sup> ozon diftorid. OF<sub>2</sub> quyidagi reaksiya orqali olinadi:



OF<sub>2</sub> rangsiz, nafas organlariga kuchli ravishda ta`sir etadigan gaz. Uning qaynash harorati -145°C, qotish xarorati -223,8°C; suyuq holda sarg`ish tusga ega. Suvda eriganida quyidagi reaksiya boradi:



kislorod diftorid O<sub>2</sub>F<sub>2</sub> quyidagi reaksiya orqali olinadi:



O<sub>2</sub>F<sub>2</sub> faqat past haroratlarda barqaror modda; u qizg`ish rangli qattiq jism: uning qaynash xarorati -57°C; muzlash xarorati -163,5°C qaynash xaroratidan salgina yuqoriroqda O<sub>2</sub> va F<sub>2</sub> ajralib ketadi.

Ozon diftorid O<sub>3</sub>F<sub>2</sub> past xaroratda olinadigan ko`k-qizil suyuqlik; uning -183°C dagi zichligi 1,74 g/sm<sup>3</sup>. U ham endotermik modda bo`lib, uning hosil bo`lish issiqligi -6,24 kkal/mol ga teng. O<sub>3</sub>F<sub>2</sub> -5°C da parchalanadi.

## 2. Xlor, olinishi, birikmalari, xossalari

**Xlor Cl<sub>2</sub>**, tartib raqami Z=17, atom og`irligi 35,5 izotoplarning massa sonlari 35 va 37. Elektron konfigurasiyasi 1s<sup>2</sup>2s<sup>2</sup>2p<sup>6</sup>3s<sup>2</sup>3p<sup>5</sup>


Xlorni 1774 -yili Sheyele xlorid kislotaga MnO<sub>2</sub> ta`sir ettirish yo`li bilan kashf etgan. Faqat 1810 yilda Devining xizmatlari tufayli, xlor kimyoviy element sifatida tanilgan (yunoncha «xloros»-yashil-sariq)

Xlor tabiatda keng tarqalgan; Yer qobig`ida og`irlilik jixatidan 4,8·10<sup>-2</sup> % tarqalgan. Xlor tabiatda birikmalar holida bo`ladi: NaCl, NaCl·KCl, MgCl<sub>2</sub>·6H<sub>2</sub>O, MgSO<sub>4</sub>·KCl·3H<sub>2</sub>O. NaCl tuzi xlor sanoati uchun zaruriy xom ashyodir. Inson organizmida qariyb 0,25% gacha xlor bo`ladi. Nixoyat, oshqozon suyuqligida 0,3-

0,4% HCl ning bo`lishi juda katta fiziologik axamiyatga ega. Inson va hayvonlar organizmida NaCl ning borligi organizm xo`jayralarida «suv balansini» boshqarib turadi.


Tabiiy birikmalarda xlor ikki izotop holida uchraydi:  $^{35}_{17}\text{Cl}$ ,  $^{37}_{17}\text{Cl}$ . Xloring tabiiy izotoplardan tashqari 5 ta sun`iy radioaktiv izotoplari  $^{33}_{17}\text{Cl}$ ,  $^{34}_{17}\text{Cl}$ ,  $^{36}_{17}\text{Cl}$ ,  $^{38}_{17}\text{Cl}$ ,  $^{39}_{17}\text{Cl}$  lar olingan.

Laboratoriya da xlor asosan xlorid kislotaga oksidlovchilar ta`sir ettirish yo`li bilan olinadi.



Texnikida Cl<sub>2</sub> faqat osh tuzini suvdagi eritmasini elektroliz qilish yo`li bilan olinadi.





elektroliz




Shunday qilib, bu reaksiyadan asosiy maqsad NaOH olish bo`lsada, qo`shimcha maxsulot sifatida juda ko`p miqdorda Cl<sub>2</sub> olinadi.

Xlor sariq-yashil tusli gaz, uning qaynash harorati -34°C; muzlash xarorati - 102,4°C. Xlor molekulasi 727°C da 0,03%, 1727°C da esa 52% parchalanadi. Uy haroratida bir hajm H<sub>2</sub>O da 2,3 hajm Cl<sub>2</sub> eriydi. Xloring suvdagi eritmasi «xlorli suv» dan + 8°C dan past haroratlarda Cl<sub>2</sub> · 8H<sub>2</sub>O tarkibli xlor gidrat ajratib olinishi mumkin.


Xlor kuchli oksidlovchi, ko`pchilik metallar va metallmaslar bilan birikadi.






Xlor suv va ishqorlar bilan reaksiyaga kirishadi.




Xloring vodorodli birikmasi vodorod xlorid, vodorod bilan xlor aralashmasiga quyosh nuri ta`sir ettirish yoki bu aralashmani yoqish orqali sintetik usulda olinishi mumkin:



Bu reaksiya fotoximiyyaviy reaksiyalar qatorga kiradi.





Vodorod xlorid olishning yana bir usuli-osh tuziga konsentrangan H<sub>2</sub>SO<sub>4</sub> ta`sir ettirishdir. Reaksiya ikki bosqichda boradi:




Vodorod xlorid odatdagи sharoitda gaz, uning qaynash xarorati -84,9°C, muzlash harorati - 114,8°C, 20°C da 11 suvda 450 litr HCl gazi eriydi.

HCl ning suvdagi (37,29%) eritmasi kuchli kislota bo`lib, xlorid kislota (tuz kislotasi) nomi bilan yuritiladi. Xlorid kislota eritmasi past haroratlarga qadar sovitlganda  $\text{HCl}\cdot\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{HCl}\cdot2\text{H}_2\text{O}$ ,  $\text{HCl}\cdot3\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallgidratlar hosil bo`ladi.


Aktivlik qatorining chap tomonidagi metallar xlorid kislotadan  $\text{H}_2$  siqib chiqarib, tuz hosil qiladi.



Misga xlorid kislota havo kislороди ishtirokida ta`sir eta oladi:



Kumushga havo ishtirokida konsentrланган HCl sekin ta`sir etadi:




Metall xloridlar xlorid kislotaning tuzlaridir. Ko`pchilik metallarning xloridlari suvda yaxshi eriydi. Lekin kumush xlorid  $\text{AgCl}$ , mis(I)-xlorid  $\text{CuCl}$ , simob(I)- xlorid  $\text{Hg}_2\text{Cl}_2$ , talliy (I)- xlorid  $\text{TlCl}$ , qo`rg`oshin (II)-xlorid  $\text{PbCl}_2$  yomon eriydi.

Xlor bilan kislород bevosita birikmaydi, lekin bilvosita yo`llar bilan xloring quyidagi oksidlari olingan:  $\text{Cl}_2\text{O}$ ,  $\text{ClO}_2$ ,  $\text{Cl}_2\text{O}_6$  (yoki  $\text{ClO}_3$ ),  $\text{Cl}_2\text{O}_7$


Shuningdek,  $\text{ClO}_2$  va  $\text{Cl}_2\text{O}$  parchalanganda oraliq maxsulot sifatida  $\text{ClO}$  hosil bo`lishi ham isbot qilingan.

$\text{Cl}_2\text{O}$ -xlor(I)-oksid, quruqsimob(II)- oksidga  $0^\circ\text{C}$  da xlor yuborish yo`li bilan hosil qilinadi:



$\text{Cl}_2\text{O}$ - sariq qo`ngir gaz, u beqaror modda bo`lganligi tufayli tez portlaydi. Bu moddaning dipol momenti 1,96 debay, xlor atomi bilan kislород atomi orasidagi masofa(Cl-O-masofasi)  $1,68 \text{ \AA}$  ga teng.  $\text{ClO}^-$  gipoxlorit- ion nomi bilan yuritiladi masalan,  $\text{NaClO}^-$  natriy gipoxlorit deyiladi. Gipoxlorit kislota ( $\text{HClO}$ ), u xloring gidrolizi natijasida hosil bo`ladi:  $\text{Cl}_2 + \text{H}_2\text{O} \rightarrow \text{HClO} + \text{HCl}$ .



$\text{HClO}$  juda kuchsiz kislotalardan hisoblanadi: uning dissosilanish konstantasi  $K_{\text{q3}} \cdot 10^{-8}$  ga teng. Gipoxlorit kislota parchalanib, atomar kislород chiqarib turadi.



Shu sababli nam xlor oqartirish xossasiga ega bo`ladi. Gipoxloritlarni olish uchun ishqorlarning eritmalariga xlor ta`sir ettiriladi:



Bu reaksiya natijasida xosil bo`lgan suyuqlik ko`p vaqtlardan beri Laborak suvi nomi bilan oqartirish maqsadlari uchun ishlatalib keladi. Kaliy gidroksid eritmasinga Cl yuborilishidan xosil bo`lgan suyuqlik Javel suvi deyiladi va matolarni oqartirish uchun ishlataladi. Gipoxlorit kislota tuzining oqartirish xossasi quyidagi reaksiyaga asoslangan:




Oqartirish, shuningdek, dizenfeksiya qilish uchun xlorli oxak keng ishlataladi, modda  $\text{Ca}(\text{OH})_2$ ga  $\text{Cl}_2$  ta`sir etirib olinadi.



Xlorit kislotaning angidridi  $\text{Cl}_2\text{O}_3$  olingan emas. Xlorit kislotaning  $\text{HClO}_2$  o`zi ham faqat suyultirilgan suvdagi eritmalarida bo`ladi xolos. Urtacha kuchdagi kislota uning dissosilanish konstantasi odatdagisi haroratda  $5 \cdot 10^{-3}$  ga teng.

Xlor (IV)- oksid  $\text{ClO}_2$  ga muvofiq keladigan kislota olingan emas. Xlor (IV) - oksid olish uchun xloratlarni sulfat kislota bilan parchalash yoki ularni biron qaytaruvchi ta`sirida qaytarish kerak:




Texnikada  $\text{ClO}_2$  olishda qaytaruvchi sifatida  $\text{SO}_2$  qo`llaniladi:



$\text{ClO}_2^-$  o`tkir hidli, yashil - sariq tusli, o`z-o`zidan portlaydigan gaz. Uning qaynash harorati  $11^\circ\text{C}$ , muzlash harorati  $-59^\circ\text{C}$ . U sovitilganda qo`ng`ir tusli suyuqlikka aylanadi.  $\text{ClO}_2$  ishqorlar bilan xlorit va xloritlar hosil qiladi:



Suv bilan esa xlorit va xlorat kislotalarning eritmalarini hosil qiladi:




Xlorat angidrid  $\text{Cl}_2\text{O}_5$  olingan emas; xloratlar gipoxloritlarning  $50-60^\circ\text{C}$  da parchalanishidan hosil bo`ladi.



Qaynoq ishqor eritmasiga  $\text{Cl}_2$  yuborish yo`li bilan bertole tuzi  $\text{KClO}_3$  olinadi:




Xlorat kislota hosil qilish uchun  $\text{Ba}(\text{ClO}_3)_2$  ga sulfat kislota ta`sir ettiriladi.




Xlorat kislota barqaror modda, erkin holatda parchalanadi, lekin uning konsentrangan (suvdagi 40% li) eritmalarini olingan. Eritmaning konsentrasiyasi yanada oshirilganda  $\text{HClO}_3$  parchalanib ketadi.  $\text{HClO}_3$  bir negizli va kuchli kislota. Uning 1N eritmasining effektiv dissosialish darajasi 79% ga teng. U kuchli oksidlovchi.

Xlorat kislota o`zining ko`p xossalari bilan nitrat kislota  $\text{HNO}_3$  ni eslatadi; xususan xlorat kislotaning xlorit kislota bilan aralashmasi xuddi zar suvi singari nixoyatda kuchli oksidlovchi hisoblanadi:



Xlorat kislotaning tuzlari metall xloratlar  $\text{MeClO}_3$  odatdagisi haroratda tamomila barqaror, suvda yaxshi eriydigan rangsiz moddalar bo`lib, qizdirilganda (katalizator ishtirokida) kislorod ajratib parchalanadi:




Katalizatorsiz qizdirilganda parchalanish quyidagicha boradi.




Xlor(VI) oksid odatdagisi haroratda qoramtiligini qizil tusli suyuqlik. Xlor (VI) - oksidning suyuq holatdagi molekulyar og`irligi  $\text{Cl}_2\text{O}_6$  formulaga, bug` holatdagisi esa  $\text{ClO}_3$  formulaga muvofiq keladi.


Xlor (VI) - oksid asta - sekin suvda erib, xlorat va perxlorat kislotalarning aralashmasini hosil qiladi:




$\text{Cl}_2\text{O}_7$  rangsiz, moysimon suyuqlik, u quyidagi reaksiya orqali olinadi.




Perxlorat kislota  $\text{HClO}_4$  esa perxloratlarga konsentrangan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta'si ettirishdan hosil bo'ladi:



Perxlorat o'z navbatida xloratlarning katalizatorsiz sharoitda parchalanishidan hosil bo'ladi. Perxlorat kislota nixoyatda kuchli kislotadir. Perxlorat kislota suv bilan bir necha gidratlar hosil qiladi, chunonchi:




Xloring kislordanli kislotalarining kuchi xloring oksidlanish darajasi ortishi bilan, lekin ularning oksidlash qobiliyati xloring oksidlanish darajasi ortgan sayin kamayadi:




Bu qatorda chapdan o'ngga tomon kislotalarning barqarorligi xam ortadi. Gipoxlorit anion  $\text{ClO}^-$  ning xosilalari har qanday muhitda xam oksidlovchi bo'la oladi;



Xlorat anion  $\text{ClO}_3^-$  ning xosilalari ancha barqaror; ular faqat kislotali muxitda oksidlovchi sifatida reaksiyaga kirishadi;



Perxlorat anion  $\text{ClO}_4^-$  ning xosilalari odatdagি haroratda, xatto kislotali muxitda ham, oksidlovchi sifatida reaksiyaga kirishmaydi:




### 3. Brom, olinishi, birikmalari, xossalari

**Brom Br**, tartib raqami  $Z=35$ , tabiiy izotoplari bromning elektron konfigurasiysi  $1s^2 2s^2 2p^6 3s^2 3p^6 3d^{10} 4s^2 4p^5$ .


Brom 1826-yilda Ballar tomonidan kashf etilgan. Bromning Yer po'stlog'ida umumiy miqdori og'irlik jixatdan  $1,6 \cdot 10^{-4}\%$ . Brom tuz konlarining ustki qavatida karnalit  $\text{KBr} \cdot \text{MgBr}_2 \cdot 6\text{H}_2\text{O}$  holida uchraydi. NaBr va KBr dengiz suvida va tuz konlarda topiladi. Ba'zi neft konlaridan chiqadigan suvlarda ham bir oz miqdorda brom birikmalari uchraydi.

Brom olishning eng arzon usuli bromidlarga xlor ta'sir ettirihdir. Bunda xlor bromidlardan bromni siqib chiqaradi.




Brom odatdagи sharoitda shotut rangli suyuq metallmas bo'lib, uning bug'lari o'tkir yoqimsiz xidlidir. Brom suvi sovitilganda  $\text{Br}_2 \cdot 8\text{H}_2\text{O}$  tarkibli kristallgidrat ajralib chiqadi ( $-10^\circ\text{C}$  dan pastda)


Bromning elektronga moyilligi xlornikidan kichik, shu sababli brom bilan bo'ladigan reaksiyalar xlor bilan bo'ladigan reaksiyalarga qaraganda sustroq. Vodorod bromid  $\text{HBr}$  vodorod bilan bromning bevosita birikishidan hosil bo'lishdan tashqari, yana kaliy bromidga  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta'sir ettirish yuli bilan ham  $\text{HBr}$  olinishi mumkin:




boradi: masalan, brom vodorod bilan faqat qizdirilganda yoki katalizator ishtirokida reaksiyaga kirishadi:



Lekin bu reaksiya uchun qo'llaniladigan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning konsentrasiyasi u qada yuqori bo`lmasligi (uning solishtirma og`irligi 1,4 ga teng bo`lishi) kerak. Aks holda hosil bo`ladigan HBr oksidlanib brom ajrala boshlaydi:




Olingen eritmani fraksion haydash orqali HBr ning konsentrasiyasini 48% gacha yetkazish mumkin. Vodorod bromid olish uchun asosan  $\text{PBr}_3$  gidrolizidan foydalaniladi:




Vodorod bromid o`tkir hidli rangsiz gaz; havoda xuddi  $\text{HCl}$  kabi tutaydi. Vodorod bromidning suvdagi eritmasi juda kuchli kislota. U metallarga, metall oksidlariga va gidroksidlariga xlorid kislota kabi ta`sir etadi. Bromid kislotaning tuzlari metall bromidlar suvda yaxshi eriydi: faqat ba`zi og`ir metallarning bromidlari (masalan  $\text{AgBr}$  va  $\text{PdBr}_2$ ) suvda oz eriydi.

Gipobromit kislota bromning suv ta`siridan parchalanganida o`z miqdorda hosil bo`ladi:




Muvozanatdagi sistemadan HBr ni yo`qotish uchun bromli suvgaga simob(II)- oksid qo`shiladi:



Hosil bo`lgan  $\text{HBrO}$  eritmasini vakuumda  $30^0$  % da bug`latish yo`li bilan gipobromit kislotaning konsentrasiyasi 6% yetkaziladi. Gipobromit kislotaning tuzlari metall gipoxloritlar kabi hosil bo`ladi. Gipobromitlar beqaror moddalar bo`lib, xuddi gipoxloritlar kabi qizdirganda disproportsiyaga uchraydi:




Bromat kislota  $\text{HBrO}_3$  bariy bromatga suyultirilgan  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ta`sir ettirib olinadi. Bundan tashqari, bromli suvgaga xlor yuborilganda ham bromat kislota hosil bo`ladi:



Bromat kislota faqat suvdagi eritmada barqaror modda; uning kislotalik kuchi xlorat kislotanikidan birmuncha pastroq, lekin  $\text{HClO}_3$  ga qaraganda  $\text{HBrO}_3$  ancha barqaror, uning suvdagi konsentrasiyasini 50% ga yetkazish mumkin.

Bromat kislotaning o`zi xech qayerda ishlatilmaydi, lekin uning tuzlari oksidlovchi sifatida qo`llaniladi.


Bromatlar bilan bromidlar orasida kislotali muxitda boradigan reaksiya diqqatga sazovordir:



Bu reaksiyada hosil bo`ladigan brom qaytaruvchilar miqdorini aniqlashda qullaniladi. Bu metod analitik kimyoda bromatometriya nomi bilan yuritiladi.


#### 4. Yod, olinishi, birikmalari, xossalari

**Yod**, tartib raqami  $Z=53$  atom og`irligi 126,9044, barqaror izotopi  $^{127}\text{J}$  elektron konfigurasiyasi




Yodni fransuz olimi Kurtua 1811-yili dengiz o`simliklarining kulini tekshirish natijasida kashf etdi. Yodning mustaqil element ekanligini esa 1813 yilda Gey-Lyussak isbot qildi va yod nomi berishni taklif etdi. Yodning Yer qobig`idagi miqdori og`irlik jixatidan  $3.10^{-5}\%$  ni tashkil qiladi. Yod odatda brom uchraydigan joylarda bo`ladi. Yodning tabiatda tarqalganligi katta ahamiyatga ega. Yod birikmalari organizmda modda almashinuvini yo`lga solib turishda muxim rol o`ynaydi. Organizmda yod yetishmay qolganda endemik buqoq deb ataladigan kasallik vujudga keladi.

Yod toza element hisoblanadi, chunki tabiatda uning faqat bir izotopi  $^{127}\text{J}$  uchraydi, lekin yodning juda ko`p sun`iy izotoplari olingan. Yod yodidlarga xlor ta`sir ettirish yo`li bilan olinadi.



Yod olishda yana quyidagi usuldan foydalaniladi, ya`ni Chili silitrasidan  $\text{NaNO}_3$  kristallanganida ortib qoladigan eritma tarkibida natriy yodat bo`ladi. Bu eritmada yod olish uchun eritmaga  $\text{SO}_2$  yuboriladi (yoki  $\text{H}_2\text{SO}_4$  ning tuzlari qushiladi). Bu vaqtda natriy yodat yodga qadar qaytariladi:



Ishlab chiqarishda olinadigan yod uncha toza bo`lmaydi; u albatta, tozalanishi kerak. Yodni tozalash uning sublimatlanish xossasiga asoslangan.

Yod odatdagagi xaroratda qo`ng`ir tusli rombik, metall yaltiroqligiga ega bo`lgan kristall modda. Yod bug`lari ikki atomli molekulalardan iborat. Yod molekulalarining atomlarga ajralishi  $927^\circ\text{C}$  da 13% ga yetadi. Yod suvda juda oz eriydi; bu vaqtida yodning oksidlanish darajasi 0 dan +1 ga va -1 ga qadar o`zgaradi:



Yodning gidrolizlanish konstantasi  $K_{\text{gid}}=5 \cdot 10^{-13}$ . Lekin yod molekulalari qutbsiz bo`lganligi sababli yod organik erituvchilarda (spirt, benzol, efir, xloroform kabi erituvchilarda) yaxshi eriydi. Yod bilan erituvchi orasida o`zaro ta`sir borligi tufayli eritmalarining rangi gunafsha yoki qo`ng`ir tusli bo`ladi. Agar bu o`zaro ta`sir kuchsiz bo`lsa (masalan,  $\text{CCl}_4$ ), eritma gunafsha yoki qo`ng`ir tusli bo`ladi. O`zaro ta`sir kuchliroq bo`lsa, (masalan, asetonda) eritma qo`ng`ir tusni egallaydi.

**Kimyoiy jixatdan yod oksidlovchilar jumlasiga kiradi. Lekin uning oksidlash xossalari xlor va bromnikiga qaraganda kuchsizroq ifodalangan.**

### Nazorat savollari.

1. Ftor qanday kompleks birikmalar hosil qiladi.
2. Xlorning oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.
3. Bromning oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.
4. Yodning oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari.

## **Asosiy adabiyotlar**

1. N.A. Parpiyev, A.G. Muftaxov. Anorganik kimyoning nazariy asoslari- Toshkent. “O‘zbekiston” 2000 yil. 375-bet.
2. N.A. Parpiyev, A.G. Muftaxov, H.R.Rahimov. Anorganik kimyo – Toshkent. “O‘zbekiston” 2003 yil. 504-bet.
3. X.R. To‘xtayev, A.T. Sharipov, S.N. Aminov. Noorganik kimyo – Toshkent “Fan va texnologiya” 2018 yil. 560-bet.

## **Qo‘sishma adabiyotlar**

4. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekistonda erkin va farovon yashaylik. “Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 52 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g‘oyamizning poydevoridir. Toshkent, “Tasvir” nashriyot uyi, 2021. – 36 b.
6. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent, “O‘zbekiston” nashriyoti, 2022. – 416 b.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 28-martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5696 son Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-martdagи “Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-187-son qarori.
9. Z.Aminov, Sh,Nazarov “Anorganik kimyodan laboratoriya mashg‘ulotlari” - Samarqand “Sardor poligraf” 2001 yil
10. Silberberg Martin S., Principles of general chemistry/ Martin S Silberberg-3-ed. Published McGraw Hill, - New York, 2013, 792.p.
11. Shriver and Atkins, Inorganik chemistry, Fifth Edition, 2010/ P.W.Atkins, T.L.Owerton and Company,- New York, 2010, 825.p.

## **Axborot manbaalari:**

1. [www.gov.uz](http://www.gov.uz)
2. [www.lex.uz](http://www.lex.uz)
3. [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz).
4. [www.ximik.ru](http://www.ximik.ru)
5. [www.chemistry.ru](http://www.chemistry.ru)

**Tuzuvchi:**

**Aripova M**

**Kafedra mudiri:**

**Safarova L.U**

